

# Pokiston elchisi Termizga keldi



Pokiston elchisi Termizga keldi

Bugun Pokiston Islom Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Said Ali Asad G'iloniy Surxondaryoga tashrif buyurdi. Mehmonni Termiz xalqaro aeroportida viloyat hokimining o'rinbosari Jo'rabek To'raev kutib oldi.

12 iyunga qadar davom etadigan amaliy tashrif davomida Said Ali Asad G'iloniyning Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov bilan ikki tomonlama hamkorlik istiqbollari haqida fikr almashishi, Termiz xalqaro savdo markazi taqdimoti hamda viloyatning diqqatga sazovor maskanlari bilan tanishuvi ko'zda tutilgan.